



STATISTIK KUZATISH MA'LUMOTLARINI JAMLASH VA GURUHLASH

Safarova Sevara

Guliston Davlat Universiteti talabasi

Jumaboyeva Munavvar

Guliston Davlat Universiteti talabasi

Zaripov Azamat

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqola ma'lumotlar statistik guruhlash haqida bo'lib, jarayonlarni har tamonlama, chuqur o'rganish uchun kuzatish to'plami ma'lumotlarini muxim belgilariga qarab guruhlarga ajratishni o'rganishga qaratilgan*

***Kalit so'zlar:** Statistik guruhlash, statistik jadval, guruhlash belgisi, mohiyati va vazifalari, jadvallar egasi va kesim, statistik jadval, markazlashgan va markazlashmagan.*

Kirish

Statistik kuzatish natijasida o'rganilayotgan hodisalarning har biri to'g'risida juda ko'p ma'lumotlar to'planadi. Lekin bu ma'lumotlar biror belgi bo'yicha tartibga keltirilmaganligi sababli hodisalar to'g'risida umumiy xulosalar qilishga imkon bermaydi. Shuning uchun navbatdagi vazifa ma'lumotlarni jamlash, bir tizimga keltirish va qayta ishlashdir. Bu bosqich har qanday statistik tadqiqotning ikkinchi bosqichi bo'lib, statistik kuzatish ma'lumotlarini jamlash va guruhlash deb yuritiladi.

Tahlil va natijalar

Statistikada jamlash tor va keng ma'noda tushiniladi. Tor ma'noda jamlash deganda kuzatishdan olingan ma'lumotlarni biror belgisiga qarab guruhlamasdan, to'planning umumiy yig'indisini (yakunini) hisoblanish tushuniladi. Masalan, respublika bo'yicha terilgan paxtaning umumiy miqdori, o'rilgan g'alla maydoni, institut bo'yicha o'qiydigan barcha talabalar soni va hokazo. Rejalashtirilgan maqsad va vazifani hal qilish nuqtai nazaridan guruhlash: tipologik, tuzulmaviy (tarkibiy) va analitik bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy hodisa voqealarning bir xil tipdagi o'zgarishi bo'yicha guruhlanishi tipologik guruhlashga kiradi. Xalq xo'jaligini tarmoqlar bo'yicha, faoliyat yurituvchi sub'ektlarni mulk shakli bo'yicha, avtomobillarni tiplari bo'yicha guruhlash tipologik guruhlashga misol bo'ladi.

Iqtisodiy hodisa va jarayonlar doimo bir-biri bilan bog'liqlikda bo'ladi. Hodisa va jarayonlar belgilarini o'zaro bog'liqligi, qanchalik aloqadorligi analitik guruhlashlardan foydalanib aniqlanadi. Bunda natijaviy belgiga bir yoki bir nechta omilli belgining

ta'sirini aniqlash mumkin. Mahsulot hajmi bilan tannarx yoki foyda ko'rsatkichlari, talab va baho (narx) o'rtasidagi bog'lanishlar analitik guruhlash asosida aniqlanadi.

Ommaviy hodisa va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rinarli, tushunarli va ixcham tarzda tegishli qator va ustun katakchalarga tartib bilan yozish statistik jadval deyiladi.

Statistik kuzatish ob'ekti, xududi yoki boshqa hodisalar ega bo'lib tuzulgan jadvallar oddiy statistik jadvallar deyiladi. Bunday jadvallarda qo'shimcha ishlar kam bo'lib, jadvalga ma'lumotlar kuzatish materiallaridan olinadi. Masalan, (1-jadvalga qarang)

1-jadval

Sirdaryo viloyatida hududlar bo'yicha don etishtirish ko'rsatkichlari (2020-2022yy) bo'yicha real o'sish sur'ati, foizda

No	Hududlar	fermer xo'jaliklari O'sish sur'ati, %	dehqon xo'jaliklari O'sish sur'ati, %	qishloq xo'jalik korxonalarini O'sish sur'ati, %	Barcha toifadagi ho'jaliklar O'sish sur'ati, %
1	Guliston sh	0,0	132,5	0,0	28,0
2	Shirin sh	0,0	111,9	0,0	111,9
3	Yangier sh	18,1	101,8	0,0	66,8
4	Oqoltin	84,6	102,1	168,6	102,0

Xulosa

Qisqacha xulosa qilib aytadigan bo'lsak ommaviy hodisa va jarayonlar ko'p omillar ta'sirida vujudga kelganligi sababli, ko'rsatkichning tub mohiyatini bir necha belgilari bo'yicha guruhlash natijasida o'rganiladi. Mana shunday jadvallar guruhlangan statistik ma'lumotlardan foydalanib hodisa va voqealarning tub mohiyatini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T.: O'zbekiston, 2018.
2. O'zbekiston Respublikasi Qonuni: "Davlat statistikasi to'g'risida" 2002 yil 12 dekabrda qabul qilingan.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika Qo'mitasi to'g'risidagi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 2 sentyabrdagi 690-sonli qarori bilan tasdiqlangan.



4. Umarov, S. R. (1992). On the well-posedness of boundary value problems for pseudodifferential equations with analytic symbols. In *Doklady Akademii Nauk* (Vol. 322, No. 6, pp. 1036-1039). Russian Academy of Sciences.
5. Umarov, S. R. (1993). Some boundary value problems for elliptic equations with a boundary operator of fractional order. In *Doklady Akademii Nauk* (Vol. 333, No. 6, pp. 708-710). Russian Academy of Sciences.
6. Умаров, С. (2017). Основные направления инновационного развития водного хозяйства и его поддержка. *Экономика и инновационные технологии*, (1), 43-50.
7. Rustamovich, U. S. (2017). Features of innovative water management in the modernization of economy. *TRANS Asian Journal of Marketing & Management Research (TAJMMR)*, 6(1), 45-53.
8. Turayeva, G. (2023). OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA DON ISHLAB CHIQRUVCHI XALQARO TRENDLAR. *Молодые ученые*, 1(13), 140-143.
9. Turayeva, G. (2023). Don ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlashning iste'mol savatidagi ahamiyati. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 24(2), 440-444.
10. Кароматов, И. Д., & Гулямов, Х. Ж. (2017). Медицинские вопросы, освещенные в Библии. *Биология и интегративная медицина*, (4), 55-75.
11. Gulyamov, X. (2023). INTER-ETHNICITY IN THE FORMATION OF CIVIL SOCIETY IN UZBEKISTAN HARMONY AND RELIGIOUS TOLERANCE. *Interpretation and Researches*, 1(12). извлечено от <http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/1314>
12. Toshtemirova Mokhira Makhmud qizi, & Jurakulova Durдона Shuxratovna. (2023). Parasites of the Oral Cavity. *Genius Repository*, 25, 19–20. Retrieved from <https://www.geniusrepo.net/index.php/1/article/view/176>
13. Тураева, Г. (2023). Актуальность Обеспечения Стабильности Производства Зерна В Национальной Экономике. *Бюллетень педагогов нового Узбекистана*, 1(9), 101-107.
14. Xojiakbar, P., Umidjon, F., & Gulizahro, T. (2023). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKGA KIRITILGAN INVESTISIYALARNI STATISTIK VANOLASH. *Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения*, 1(6), 18-20.
15. Gulizahro, T. THE IMPORTANCE OF DEVELOPING THE EXCHANGE MECHANISM AND ONLINE TRADE IN THE E-COMMERCE SYSTEM (IN THE EXAMPLE OF GRAIN TRADE). Gulizahro, T. THE IMPORTANCE OF DEVELOPING THE EXCHANGE MECHANISM AND ONLINE TRADE IN THE E-COMMERCE SYSTEM (IN THE EXAMPLE OF GRAIN TRADE).